

## TIL, TAFAKKUR VA MADANIYAT MUNOSABATI

**Raximov Sarvarjon Akramjon o'g'li**

QDPI O'zbek tili kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til va madaniyat, til va tafakkur munosabati, tilning lingvokulturologik ahamiyati haqida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar:** til va madaniyat, til va tafakkur, lingvomadaniy birliklar, etnolingvistika

**Annotation:** This article talks about the relationship between language and culture, language and thinking, and the linguistic and cultural importance of language

**Key words:** language and culture, language and thinking, linguistic and cultural units, ethnolinguistics

Dunyodagi barcha tillar ma'lum bir taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tadi. Uning rivojlanishi jamiyat bilan, tafakkur va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Insonning tafakkuri, dunyoqarashi, madaniyati uning tili orqali namoyon bo'ladi. Til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlari haqida gap ketganda antropologik tilshunoslik va lingvokulturologiyaga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi.

XIX asrning birinchi yarmida V.Gumboldt tomonidan zamonaviy antropologik tilshunoslikka asos solindi. U bir necha bor, til - bu shunday organki, inson u yordamida o'z fikrini ifodalaydi deb ta'kidlagan. Bundan tashqari, nemis olimi ko'p marta til millat ruhini ifodalaydi va shakllantiradi, olam haqidagi milliy tasavvurni ko'rsatadi hamda turli tillarning mavjudligi, turli xalqlarda tafakkur obrazining xilma-xilligi asosida bo'lishini aytadi. V.Gumboldt tillarni qiyoslashga alohida e'tibor qaratishga chaqiradi, zero uning fikricha, "ularning farqi - bu nafaqat tovush va belgilarda, balki dunyoqarashda hamdir [ 1,5].

Til, jamiyat va madaniyat shunday uyg'unlik, ularning taraqqiyoti bir-birisiz rivojlanmaydi. Til, madaniyat va jamiyatning o'zaro aloqasi tadqiqoti "til va tafakkur", "til va insonning ma'naviy faoliyati", "til va inson xulqi", til va jamiyat", "til va inson" kabi katta muammolar doirasida olib boriladi. Bu muammolarning har tomonlama o'rganilishi, til va madaniyatning o'zaro aloqasi jabhasini ajratish muhimligiga olib kelishi tabiiy, va shu asosda, ko'plab gnoseologik, psixologik, etnik va ijtimoiy hodisalarning til aspekti orqali erishiladigan, lingvognoseologiya, psixolingvistika, etnolingvistika va sosiolingvistakada birlashmagan holda mavjud bir qator muammolarni o'rganish mumkin bo'lgan lingvokulturologiya yo'nalishini paydo qiladi. Til va madaniyatning o'zaro munosabati spesifik muammolarining lingvokulturologiya tomonidan yechilishi ikki yo'nalishda amalga oshishi mumkin. Bir tomondan, lingvokulturologiya madaniy faktorning tilga ta'siri (kulturologik



lingvistika muammolari), boshqa tomondan, til faktorining madaniyatga ta'siri (lingvistik kulturologiya muammolari)ni o'rganadi. Shunga qaramay, lingvokulturologiyaning ob'yekti, ularning bir-biriga munosabatida, til va madaniyatdan iborat bo'lishi lozim. Tadqiqot ob'yektining yaxlitligi haqidagi bunday tasavvur muammolar kompleksini yagona ilmiy-nazariy yondashuv asosida yechish imkonini beradi.

Antropologik parametrlar (insoniyat, etnos, sosium, individ)ning o'zgarishi bilan bog'liq holda, til va madaniyatning o'zaro munosabatlar muammosini fanning turli sohalari- gnoseologiyada (madaniyat-til-inson tafakkuri), etnografiyada (madaniyat-til-etnos), sosiologiyada (madaniyat-til-sosium) va psixologiyada (madaniyat-til-individ xulqi) o'rganish imkoni paydo bo'ladi [1.9].

Etnolingvistika uchun madaniyat va tilning etnos bilan o'zaro ta'siri muammosi ma'lum darajada munozarali hisoblanadi. Til va madaniyat o'zlarining barcha qo'llanishlarida ijtimoiy tuzilmalarni differensiyalash, alohida sosiumlarni integrasiyalash va qarshi qo'yishga qodir deb hisoblanadi. Til va madaniyatning etnosga, ya'ni umumiy tarixiy kelib chiqish, birga yashash, yagona madaniyat va yagona til bilan birlashgan insonlar jamoasiga munosabatida yorqin namoyon bo'ladigan muhim funksiyasi shundan iborat. Barcha komponentlar orasida til nisbatan ifodali etnik funksiyaga ega bo'lishiga qaramay, uning etnik belgi sifatidagi roli etnografik va lingvokulturologik bilimlar bilan bahslashadi. Til, etnosning muhim tavsifi bo'lishiga qaramay, uni belgilashi va istalgan etnosning differensiyalovchi belgisiga ega bo'lishi shart emas degan nuqtai nazar mavjud. Madaniyatga kelsak, uning etnosni aniqlashdagi farqli roli ikkilanish tug'dirmaydi. Etnik madaniyat tarkibiga bir tomondan umuminsoniy, ya'ni madaniyatlararo qadriyatlar, boshqa tomondan, etnik madaniyatning spesifikasini tashkil qiluvchi, mazkur madaniyat shakllanishi qadriyatlari kiradi.

Ma'lum munosabatda bo'lgan til, uning birliklarining ta'siri ostida inson "olam manzarasini", shu jumladan, madaniy olam manzarasini shakllantiradi. Albatta, ma'lum til tushunchalarida til va tafakkur butun borliqni shakllantiradi, deb hisoblash noto'g'ri bo'lgan bo'lur edi. Bu masalaning sub'yektiv tomoni. Tilning sharofati bilan olamni ma'lum darajada taffakkur qilishga rag'batlantiruvchi butun borliq esa xalqning ongida konkret til shakllarida namoyon bo'ladi. Til – ijtimoiy hodisa. Uni ijtimoiy munosabatlarsiz, boshqa odamlar bilan muloqot qilmasdan egallash mumkin emas. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, agar uning asosiy so'z boyligi, nutq qoidalari va tarkibi juda yoshlikdan egallangan bo'lsa, garchi bunda inson tajribasining juda ko'p jihatlari butunlay unutilib yuborilgan bo'lsa ham, ona tilida gapirishni unutish aslo mumkin emas. Bu tilning inson ehtiyojlari uchun yuqori darajada moslanuvchanligidan dalolat beradi.





Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin [2,3 – 16].

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma‘nosi “aqliy-ma‘naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir”.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir[3,10]. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi[3,9]. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo‘lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o‘rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi[3,9 – 10].

Xulosa qilib aytganda, til tafakkur, jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog‘liq. Har bir jamiyatning, uning har bir a‘zosi tafakkuri va madaniyatida til namoyon



bo'radi. Vaholanki, har bir jamiyatning tilida uning madaniyati va mentaliteti aks etadi.

Tilni lingvokulturologik tadqiq etishda etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Til sohibining etnik, psixologik va madaniy xususiyatlarini, uning ijtimoiy va kasbiy statuslari til taraqqiyotida katta o'rin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mamatov A. – Zamonaviy lingvistika. Toshkent, 2018.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5.
3. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013.

